

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH SIYOSATI. 1-TAHRIR

"ORIFLAME" Xorijiy Korxonada shaklidagi Mas'uliyati cheklangan jamiyati ("Biz" yoki "Kompaniya") sizlarning shaxsiy ma'lumotlaringizni himoyalash va saqlanishini ta'minlash asosiy qonun-qoidalariga amal qiladi.

Mazkur shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash siyosati veb-saytdan foydalanish shart va qoidalar va havolalar mavjud bo'lgan boshqa hujjatlar bilan birikmada biz tomonimizdan ishlov beriladigan shaxsiy ma'lumotlarning (sizning, siz haqingizda yoki siz bizga taqdim etayotgan o'sha ma'lumotlar) to'planishini amalga oshiriladigan asosni tashkil qiladi. Sizni shaxsiy ma'lumotlaringiz bilan ish qay tarzda qurilganligini va biz ular bilan qanday muomala qilishimiz haqida tasavvur olish uchun, iltimos, quyida keltirilgan hujjat bilan tanishib chiqing. O'z ma'lumotlaringizni ro'yxatdan o'tish shaklida (CAF) yoki <http://uz.oriflame.com/business-opportunity/become-consultant> havola bo'yicha elektron ko'rinishda yoki qog'oz shaklida taqdim qilib, siz mazkur Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash siyosatida tavsiflangan qoidalar bilan roziligingizni bildirasiz.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonunga rioya qilish maqsadida, shaxsiy ma'lumotlar bazasining operatori etib Toshkent shahri, 100 084, Yunusobod tumani, Amir Temur ko'chasi, 88a-uy (A.Temur va KXAY ko'chalarining kesishgan joyi), Liter 0002 manzilda joylashgan "ORIFLAME" Xorijiy korxonada shaklidagi Mas'uliyati cheklangan jamiyat hisoblanadi.

Biz O'zbekiston Respublikasining (keyingi o'rinlarda - "O'R") qonunchiligiga muvofiq ma'lumotlarga ishlov beramiz, shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishning maqsadi - o'zimizning majburiyatlarimizni bajarilishini ta'minlash va sizning ro'yxatdan o'tishingiz munosabati bilan paydo bo'ladigan bizning huquqlarimizni himoyalashini ta'minlash. Biz tomondan ma'lumotlarga ishlov berish quyidagi ta'riflangan qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

I Biz sizdan olishimiz mumkin bo'lgan ma'lumot

Biz sizdan quyidagi ma'lumotlaringizni olishimiz va ularga ishlov berishimiz mumkin:

I.1 Siz bizga taqdim qilayotgan ma'lumotni. Siz bizga o'z haqingizda ma'lumotlarni bizning www.oriflame.uz saytimizda (**bizning sayt**) shaklni to'ldirib, yozma ravishda ro'yxatdan o'tish shaklini to'ldirib yoki biz bilan telefon orqali muloqot qilib, elektron pochta yoki boshqa usulda taqdim qilishingiz mumkin. Bu yerga bizning saytda ro'yxatdan o'tilayotganingizda, mahsulotni xarid qilayotganingizda, bizning saytda buyurtmani joylashtirayotganingizda, muhokamalarda ishtirok etishda yoki ijtimoiy tarmoqlarda yoki bizning saytda tashkil etilgan boshqa tadbirlarda, konkurslarda, promoaksiyalarda yoki tadqiqotlarda ishtirok etishingizda, hamda bizning saytda o'rin egallagan har qanday muammolar haqida xabardor qilganingizda siz tomondan taqdim etiladigan ma'lumot kiradi. Siz bizga taqdim etayotgan ma'lumot quyidagi bandlarni kiritishi mumkin:

- FIO,
- Tug'ilgan sana,
- pochta manzili,
- elektron pochta manzili,
- stasionar va mobil telefon raqami,
- ro'yxatdan o'tish raqami,
- soliq to'lovchining individual raqami,

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH SIYOSATI. 1-TAHRIR

- bank rekvizitlari,
- sizning boquvchingizni ismi va familiyasi, agar siz voyaga yetmagan fuqaro hisoblansangiz,
- fuqarolik to'g'risida ma'lumotlar,
- shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning raqamlari, ko'rsatilgan hujjatning berilish sanasi va uni bergan organ haqidagi ma'lumotlar.

Shartnomani imzolab, Siz quyidagi ma'lumotlaringiz: familiya, ism, otaning ismi; Email; pochta manzillari (kontaktlar uchun), ro'yxatdan o'tish raqami, uyali telefon raqami, hamma uchun erishimli shaxsiy ma'lumotlaringiz hisoblanishiga o'z roziligingizni taqdim etasiz.

Ishonamizki, siz ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni taqdim etasiz. Shunga qaramay, agar siz shaxsiy ma'lumotlaringizni bizga oshkor etish istagida bo'lmasangiz, iltimos, shaxsiy ma'lumotlaringizni taqdim etmang. Agar ko'rsatib o'tilgan ma'lumot taqdim etilmagan bo'lsa, u holda alohida holatlarda biz sizga o'zingiz so'ragan o'sha xizmatlarni taqdim etish imkoniga ega bo'lmasligimizni, iltimos, ma'lumot uchun qabul qilib qo'ying.

1.2 Biz siz haqingizda to'playdigan ma'lumot. Biz sizning xaridlaringiz tarixini saqlaymiz, va hokazo.

Bizni saytimizga har bir tashrif buyurishingizda biz avtomatik tarzda quyidagi ma'lumotni yig'ishimiz mumkin:

- Texnik ma'lumotni, jumladan Internet tarmog'iga sizning kompyuteringizni ulash uchun qo'llanilgan Internet-protokol manzilini (IP), sizning foydalanuvchi ismingiz, brauzer turi va rusumi, vaqt mintaqasi sozlamalari, brauzer plaginlarining turlari va rusumlari, operatsion tizim va platforma haqidagi ma'lumotni;
- Sizning tashrif buyurishlaringizni, jumladan bizning sayt bo'ylab to'liq unifikatsiyalangan resurslar lokatorlari (URL) va bizni saytga tashrif buyurish chizig'ida (jumladan sana va vaqt) tashrif buyurishlar tarixini, ko'rilgan mahsulotlarni yoki izlash amalga oshirilgan mahsulotni, sahifaning javob berish tezligini, yuklashdagi xatoliklarni, ba'zi saytlarga tashrif buyurishning davomiyligini, sahifada amalga oshirilgan harakatlar bo'yicha ma'lumotlarni (skrolling, kliklar va sichqoncha ko'rsatkichini yuritish), hamda sahifani tark etish uchun qo'llanilgan usullar, hamda bizning mijozlar bilan ishlash bo'yicha bo'limimizga qo'ng'iroq qilish uchun qo'llanilgan telefon raqami haqidagi ma'lumotlarni.

1.3 Biz boshqa manbalardan oladigan ma'lumotlar. Agar siz bizning boshqaruvimiz ostidagi har qanday boshqa veb-saytdan yoki biz tomondan taqdim etilayotgan har qanday boshqa xizmatlardan foydalanayotgan bo'lsangiz, siz haqingizdagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Biz shu bilan birga uchinchi tomonlar bilan chambarchas hamkorlik qilamiz (jumladan, masalan, ishbilarmon hamkorlar, texnik xususiyatga ega bo'lgan xizmatlarni, to'lovlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni va yetkazib berish xizmatlarini, reklama tarmoqlari xizmatlarini taqdim etuvchi subpudratchilar, tahliliy tashkilotlar, izlash ma'lumotlarini taqdim etuvchi agentliklar, reyting agentliklari) va ulardan ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

2 Ma'lumotlarni qo'llash

Biz quyidagi vazifalarni bajarish uchun siz haqingizda olingan ma'lumotlarni qo'llaymiz:

- Siz bilan tuzilgan kontraktlar kuchida vujudga keladigan o'z majburiyatlarimizni bajarish, hamda siz bizdan so'rab olayotgan ma'lumotlarni, mahsulot va xizmatlarni,

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH SIYOSATI. 1-TAHRIR

jumladan munozaralarni hal qilish, to'lovlarni yig'ish va nosozliklarni bartaraf qilishni taqdim etish;

- Biz taklif qilayotgan va siz xarid qilib bo'lgan yoki so'rovni amalga oshirgan shunga o'xshash boshqa tovarlar va xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni sizga taqdim qilish;
- Sizga huquq, imtiyozlarni, hamda bizlarning oramizda o'zaro munosabatlar kontraktlari bilan muvofiqlikda boshqa sharoitlarni taqdim qilish;
- Bizning hamkorligimizni muvofiqlashtiruvchi qonunchilikning, masalan, soliq qonunchiligi, ijtimoiy ta'minot, statistik majburiyatlar haqidagi qonunlarning boshqa qoidalariga muvofiq kelish, va hokazo.
- Siz tomondan bizning siyosat va ish qoidalarimizni kuzatib borish va rioya qilishni ta'minlash.
- qarzdorlikni undirish uchun Kompaniyaning Sizga nisbatan moddiy talablari vujudga kelgan vaziyatda
- Bizning fikrimizcha, sizni qiziqtirib qolishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar haqidagi ma'lumotni sizga taqdim etish yoki uchinchi tomonlarga sizga taqdim etishga ruxsat berish. Sizga avval sotilgan yoki kelajakdagi savdolar maqsadi bilan muzokara predmeti hisoblangan o'xshash tovarlar va xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni taqdim qilish uchun, biz siz bilan faqat elektron pochta vositalari (elektron pochta yoki SMS) orqali bog'lanib turamiz. Ushbu ma'lumotlarni taqdim etish usullari biz tomondan faqat sizning roziligingiz bilan qo'llaniladi. Agar siz fikringizdan qaytsangiz yoki sizning ma'lumotlaringiz shunday tarzda qo'llanilishini istamasangiz, yoki sizning ma'lumotlaringiz marketing maqsadlarida uchinchi shaxslarga uzatilishini xohlamasangiz, iltimos, o'z akkauntingizda muvofiq maydonda bayroqchani o'rnating, yoki info@oriflame.uz manzilga elektron xabar jo'natib, mijozlar bilan ishlash bo'yicha bo'lim bilan bog'laning, yoki +998 71 2050088 raqam bo'yicha mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatiga qo'ng'iroq qiling.
- Bizning xizmatlar ro'yxatimizdagi o'zgarishlar haqidagi xabarnoma;
- Bizning saytni to'ldirilishi siz uchun va sizning kompyuteringiz uchun eng samarali hisoblangan usul bilan taqdim etilganligiga ishonchlikni ta'minlash;
- Biz tomondan o'z xaridorlarimizni tarmog'ini samarali boshqarilishini ta'minlash;
- Saytni boshqarish va ichki operatsiyalarni boshqarish, jumladan nosozliklarni bartaraf qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish, sinovlash, tadqiqot qilish, statistikani va so'rovlarni yig'ish;
- Siz uchun va sizning kompyuteringiz uchun ma'lumotlarni taqdim etishning maksimal samarali usullarini ta'minlash maqsadida bizning saytni takomillashtirish;
- Siz uchun, agar siz muvofiq tanlovni qilgan bo'lsangiz, bizning xizmat ko'rsatimshimizning interfaol funksiyalarini qo'llash imkoniyatini ta'minlash;
- Bizning saytni saqlanishini va xavfsizligini ta'minlash;
- Biz sizga va qolganlarga taqdim etayotgan reklamaning samaradorligini o'lchash yoki tushunish, hamda sizga muvofiq keladigan reklama materiallarini taqdim etish. Bu yerga iste'molchilarning qoniqqanlik darajasi tadqiqoti va boshqa shunga o'xshash tadqiqotlar kiradi;
- Siz uchun va bizning saytning boshqa foydalanuvchilari uchun, sizni yoki ularni qiziqtirib qolishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar haqida takliflar va tavsiyanomalarni tayyorlash;

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH SIYOSATI. 1-TAHRIR

- So'rovlarga va muvofiqlashtiruvchi va boshqa tashkilotlardan kelib tushgan tegishli tarzda o'rnatilgan yuridik talablarga javoblar.

Siz yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarga erishish uchun zarur bo'lgan yoki istalgan Sizing shaxsiy ma'lumotlaringizga nisbatan har qanday harakatlarni amalga oshirishga, jumladan, cheklovlarisiz: yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), qo'llash, tarqatish (shu jumladan uzatish), begonalashtirish, yo'q qilish, Sizing Shaxsiy ma'lumotlaringizni transchegaraviy uzatilishiga, hamda O'R amaldagi qonunchiligini inobatga olib, shaxsiy ma'lumotlar bilan har qanday boshqa harakatlarni amalga oshirish huquqlarini Bizga taqdim etayotganingizni tasdiqlaysiz. Sizing Shaxsiy ma'lumotlaringizga ishlov berish quyidagi asosiy usullarni qo'llash bilan (ammo, ular bilan cheklanmasdan) biz tomondan amalga oshiriladi: saqlash, elektron va/yoki qog'oz tashuvchilariga yozish va ularni saqlash, ro'yxatlarni tuzish, markirovkalash. Bunda, Siz o'zingizning Shaxsiy ma'lumotlaringizga avtomatlashtirilgan usul bilan qanday ishlov berilsa, ularga avtomatlashtirilmagan usulda ham xuddi shunday ishlov berilishi haqida o'rnatilgan tarzda xabardor qilinganligingizni va shu bilan rozi ekanligingizni tasdiqlaysiz. Biz Sizing shaxsiy ma'lumotlaringizga uchinchi shaxslar tomonidan O'R qonunchiligi tomonidan o'rnatilgan tartibda ishlov berilishini yuklash huquqini berishimizga, va har qanday shunday uchinchi shaxslar O'R qonunchiligi talablariga rioya qilish shartida Sizing roziligingiz asosida Shaxsiy ma'lumotlaringizga ishlov berish huquqiga ega ekanliklariga rozilik berasiz.

3 Sizing ma'lumotlaringizni oshkor qilinishi

3.1 Biz Sizing Shaxsiy ma'lumotlaringizni sotmaymiz, taqdim qilmaymiz va savdolashmaymiz.

3.2 Biz 2-bandda (Ma'lumotlardan foydalanish) ko'rsatilgan faoliyatni yuritishda Bizga qo'llab-quvvatlashni ko'rsatish maqsadida bizning guruh a'zosi hisoblangan kompaniyalarga (bosh xolding kompaniya va uning sho'ba korxonalariga) sizning shaxsiy ma'lumotlaringizga kirishga va ularga ishlov berishga ruxsatni taqdim qilishimiz mumkin.

3.3 Biz quyidagi maqsadlarda uchinchi shaxslarning cheklangan doirasiga sizning shaxsiy ma'lumotlaringizga kirishga ruxsatni taqdim etishimiz va qat'iy chegaralangan holatlarda ularga ishlov berishga ruxsat berishimiz mumkin:

- Ishbilarmon hamkorlar: ular bilan yoki siz bilan tuzilgan shartnomalarni bajarish maqsadi bilan yetkazib beruvchilar va subpudratchilar. Boshqalardan tashqari, ushbu toifaga quyidagi tashkilotlar kiradi: yuklab tashuvchilar, kreditlarni undirish bo'yicha agentliklar, faktoring va logistik xizmatlarini yetkazib beruvchilar, (yukni yig'ish va qadoqlash), iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xizmatlarni yetkazib beruvchilar, va hokazo.

- Bizning xaridorlar tarmog'imizni samarali boshqarish maqsadida bizning xaridorlar tarmog'ining boshqa ishtirokchilari. Agar siz ko'rsatib o'tilgan maqsadlar uchun boshqa xaridorlarga-tarmoq ishtirokchilariga sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni biz tomondan uzatilishini istamasangiz, iltimos, info@oriflame.uz manziliga elektron xabarni jo'natib, mijozlar bilan ishlash bo'yicha bo'lim bilan bog'laning, yoki +998 71 2050088 raqam bo'yicha mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatiga qo'ng'iroq qiling.

- Sizga va qolganlarga qiziq bo'ladigan reklama kampaniyalarini tanlash va xizmat ko'rsatish uchun ma'lumotlar zarur bo'lgan reklama agentliklari va reklama tarmoqlari. Biz aniqlash mumkin bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni bizning reklama

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH SIYOSATI. 1-TAHRIR

tashkilotlarimizga oshkor etmaymiz, biroq bizning foydalanuvchilarimiz haqida erkin ma'lumotlarni taqdim etishimiz mumkin (masalan, biz 30 yoshgacha bo'lgan taxminan 500 odam u yoki bu kuni ularning reklamasiga bosishganligi haqida ularni xabardor qilishimiz mumkin). Shu bilan birga, biz bunday jamlangan ma'lumotdan maqsadli auditoriya uchun mo'ljallangan o'sha auditoriyaga o'z reklamasini yetkazadigan reklama tashkilotlariga yordam berish uchun foydalanishimiz mumkin.

- Bizning saytni takomillashtirish va maqbullashtirishda yordam berayotgan yetkazib beruvchi tahlilchilar va izlov mashinalarining yaratuvchilari.
- Kredit baholashni o'tkazish maqsadida reyting agentliklari, agar bu muolaja siz va biz o'rtamizda shartnomani tuzish sharti bo'lib hisoblansa.
- Sizga xabarlarimizni tarqatishda imkon beradigan texnik yechimlarni yetkazib beruvchilar (jumladan, marketing xabarlari yoki iste'molchilarni qoniqqanlik darajasining tadqiqoti, agar siz bunday ma'lumotni olishga rozilik bergan bo'lsangiz), masalan, ommaviy tarqatishlar va ommaviy sms-tarqatishlarni tashkillashtirish bo'yicha yechimlarni yetkazib beruvchilar.

Shu bilan birga biz Sizning Shaxsiy ma'lumotlaringizni uchinchi shaxslarga oshkor qilishimiz mumkin:

- Biz biron bir biznes yoki aktivlarni sotayotgan, xarid qilayotgan yoki boshqa usul bilan uzatayotgan vaziyatda, shu holatda biz potensial sotuvchiga, xaridorga yoki ko'rsatilgan biznes yoki aktivlarni sotib oluvchisiga sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni oshkor qilishimiz mumkin.
- Agar bizning kompaniya yoki uning deyarli barcha aktivlari uchinchi tomondan xarid qilib olinayotgan bo'lsa, bunda unda mavjud bo'lgan mijozlar haqidagi shaxsiy ma'lumotlar berib yuborish uchun mo'ljallangan aktivlardan biri hisoblanadi.
- Agar biz yuridik majburiyatlarga rioya qilishni ta'minlash maqsadida yoki bizning siyosatni va/yoki foydalanish qoidalarini, hamda boshqa qo'llaniladigan kelishuvlarni bajarilishini ta'minlash maqsadida; yoki o'z huquqlarimizni, mulkimizni himoya qilish maqsadida yoki o'z mijozlarini, yoki boshqa shaxslarni xavfsizligini ta'minlash maqsadida sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni oshkor qilish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmamizga olganimizda. Bu yerga boshqa kompaniyalar va tashkilotlar bilan firibgarlikdan himoyalash va kredit xavflarini pasaytirish maqsadida ma'lumotlar bilan almashish kiradi.

4 Biz sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni qanday va qayerda saqlaymiz

Siz bizga taqdim etayotgan va biz siz haqingizda to'playotgan barcha ma'lumot, himoyalangan serverlarda saqlanadi. "Onlayn" tartibda amalga oshiriladigan barcha to'lovlar, SSL texnologiyasini qo'llash bilan shifrlangan va betaraf provayderlar tomonidan ishlov beriladi. Biz onlayn-tranzaksiyalar uchun qo'llaniladigan debetli va kreditli kartalar haqida ma'lumotlarni saqlamaymiz va to'plamaymiz.

Biz siz haqingizda to'playotgan ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik talablariga rioya qilish bilan O'zbekiston Respublikasidan tashqariga uzatilishi mumkin. Ularga shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi tashqarisida bo'lgan va bizga, yoki bizning yetkazib beruvchilarimizning biron biriga ishlayotgan xodimlar tomonidan ham ishlov berilishi mumkin. Ko'rsatib o'tilgan xodimlar, boshqalardan tashqari, sizning buyurtmangizni bajarilishiga, sizning to'lov rekvizitlaringizga ishlov berilishiga, Muvaffaqiyatga erishish Rejasini amalga oshirish doirasida olingan sizning mukofotlaringizga ishlov berilishiga, hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha xizmatlarni

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH SIYOSATI. 1-TAHRIR

taqdim etishga jalb qilinishlari mumkin. O'z shaxsiy ma'lumotlaringizni taqdim etib, siz ularni uzatilishi, saqlanishi va ishlov berilishi bilan rozilik berasiz. Biz sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni xavfsizligini va Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash siyosati va muvofiq qonunlarga rioya qilishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha idrokli choralarni amalga oshiramiz.

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH SIYOSATI. 1-TAHRIR

5 Zaruriy ehtiyotkorlikka rioya qilish majburiyati

Agar biz sizga o'zimizning saytning ma'lum bo'limlariga kirish huquqini ochib beradigan parolni taqdim etgan (yoki agar siz tanlagan) bo'lsak (hereinafter your "Qayd yozuvi"), ushbu parolning maxfiyligini ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmangizga olasiz. Ko'rsatilgan parolni hech kimga xabardor qilmasligingizni sizdan iltimos qilamiz. Agar siz parolni har qanday uchinchi shaxslarga xabar qilsangiz, siz o'z qayd yozuvingizni qo'llash bilan barcha amalga oshirilgan harakatlaringiz uchun javobgarlikni o'z zimmangizga olasiz. Agar siz o'zingizning parolingizni nazorat qilish imkonini yo'qotsangiz, siz shu bilan birga o'z Shaxsiy ma'lumotlaringiz ustidan ham nazoratni yo'qotishingiz mumkin, va sizning nomingizdan yuridik majburiy harakatlar amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun, agar sizning parolingiz biron bir sabablar bo'yicha oshkor etilgan bo'lsa, bizni zudlik bilan xabardor qilishingiz va parolni o'zgartirishingiz zarur. Biz hech qachon sizning parolingizni so'ramaymiz, saytga kirish uchun foydalanuvchining ismini identifikatsiyasidan o'tish muolajasidan tashqari. Bizning xodimlarimiz ma'lumotlarni himoyalayishini ta'minlash sohasidagi kengaytirilgan talablarga rioya qiladilar.

6 Sizning huquqlaringiz

6.1 Marketing ma'lumotlari. Sizda marketing maqsadlarida sizning shaxsiy ma'lumotlaringizga ishlov bermaslikni iltimos qilish huquqi bor. Odatda, biz ko'rsatilgan maqsadlarda sizning ma'lumotlaringizni qo'llash yoki agar biz ko'rsatilgan maqsadlar uchun har qanday uchinchi tomonga sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni oshkor qilish niyatimiz haqida sizni xabardor qilamiz (sizni ma'lumotlaringizni to'plashdan avval). Sizning ma'lumotlaringizni to'plash uchun biz tomondan qo'llaniladigan shaklda (asosan CAF) muvofiq bayroqchani o'rnatib, bunday ishlov berishga rad javobi berish huquqingizdan foydalanishingiz mumkin. Siz shu bilan birga o'z qayd yozuvingizda muvofiq maydonga bayroqchani o'rnatib, har qanday vaqt foydalanishingiz, yoki info@oriflame.uz elektron pochta manzili orqali mijozlar bilan ishlash bo'yicha bo'lim bilan bog'lanishingiz yoki +998 71 2050088 raqami orqali mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatiga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.

6.2 Ma'lumotlarga kirish ruxsati. Aniqlashtirish va o'chirib yuborish. Sizda siz haqingizda to'plangan ma'lumotlarga kirish va uni o'zgartirish yoki o'chirib yuborish haqida so'rovnoma yuborish huquqi bor. Siz shaxsiy ma'lumotlaringizning qayd yozuviga murojaat qilib o'zingizning shaxsiy ma'lumotlaringizni katta qismini ko'rish, tekshirish va o'zgartirish kiritishingiz mumkin. Umuman olganda, biz qo'l tartibida sizning shaxsiy ma'lumotlaringizga o'zgartirish kiritmaymiz, chunki ularning bir xilligini masofadan turib tekshirish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shunga qaramay, sizning mas'uliyatingiz sohasiga ularning noto'g'ri yoki o'zgartirilishi holatida shaxsiy ma'lumotlaringizni o'z vaqtida va tezkor yangilanishi kiradi. Sizning info@oriflame.uz elektron pochta yoki +998 71 2050088 mijozlarni qo'llab-quvvatlash raqami orqali yuborilgan so'rovnomangiz bo'yicha, biz amaldagi qonunchilikka muvofiq maksimal tezkor tarzda sizning qayd yozuvingizni yopamiz va Sizdan muvofiq xabarnoma olingan paytdan boshlab, 1 (bir) ish kuni davomida Sizning shaxsiy ma'lumotlaringizga ishlov berishni to'xtatamiz.

Shaxsiy ma'lumotlarni saqlash muddati - Shartnoma amal qilish muddati davomida va uni amal qilishi tugagan paytdan boshlab kamida 3 yil.

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH SIYOSATI. 1-TAHRIR

7 Sizing uchinchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish bo'yicha majburiyatlaringiz

Siz o'z faoliyatingiz davomida bizning xaridorlarimiz tarmog'i boshqa ishtirokchilarining shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va ishlov berishni amalga oshirishingiz mumkinligi sababli, biz sizni O'zbekiston Respublikasining shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash to'g'risidagi qonunchiligiga, hamda mazkur Siyosatda tavsiflangan qoidalarga rioya qilishingiz zarurligi haqida xabardor qilamiz.

Siz O'Rning muvofiq qonunchiligiga rioya qilishni, va xususan, ishonib topshirilgan ma'lumotlarga ishlov berish va ularni himoyalashini tartiblashtiruvchi qoidalarga rioya etishni ta'minlovchi ko'rsatilgan usulda mazkur Siyosatda tavsiflangan hajmlarda va maqsadlarda shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va ishlov berishni amalga oshirishga rozilik berasiz.

Xususan, siz quyidagilarga majbursiz:

- Avval ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish maqsadi chegarasida uchinchi shaxslar tomonidan sizga ishonib topshirilgan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish,
- Agar qonunchilik qoidalari bilan boshqa narsa nazarda tutilmagan bo'lsa, mazkur hujjatda ko'rsatilmagan usullardan biron biri bilan shaxsiy ma'lumotlarni kelajakda uzatilishiga qaratilgan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik,
- Bizning o'zaro munosabatlarimiz tugatilganidan so'ng ishonib topshirilgan shaxsiy ma'lumotlarni zudlik bilan qaytarish (ya'ni, bizning Maslahatchi sifatida sizning ro'yxatdan o'tishingiz bekor qilingandan so'ng), va avval tavsiflangan maqsadlarga erishish uchun siz saqlab qo'ygan bo'lishingiz mumkin bo'lgan elektron tashuvchilardan ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni o'chirib yuborishingiz kerak.

Biz siz tomondan foydalanilgan ishonib topshirilgan shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash usullarini tekshirishga bo'lgan huquqlarni o'zimizda saqlab qolamiz. Siz bizdan muvofiq so'rovnomaningizdan so'ng zudlik bilan bunday tekshiruvni o'tkazishga bizga imkon taqdim etishga majbursiz.

Siz mazkur Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash bo'yicha Siyosat va Umumiy Qoidalar va shartlarga muvofiq sizga uchinchi shaxslar tomonidan ishonib topshirilgan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga nisbatan biz tomondan beriladigan barcha savollarimizga, va xususan siz qo'llagan shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash usullariga nisbatan savollarga tezkor va to'g'ri javob berishga rozilik berasiz.

Uchinchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va/yoki ishlov berishni amalga oshirish vaziyatida, Siz faqat o'rnatilgan tarzda olingan shaxsiy ma'lumotlar egasining roziligi mavjudligida, Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash Siyosati va Umumiy Qoidalar va shartlar bilan tavsiflangan hajmda va maqsadlarga muvofiqlik sharti bilan ko'rsatib o'tilgan harakatlarni amalga oshirishga majburiyatni o'z zimmangizga olasiz.

Shaxsiy ma'lumotlarga ega bo'lgan fayllarni jo'natishda, ushbu fayllarni ommaviy tarmoq orqali jo'natishda saqlanganligi shaxsiy ma'lumotlarni himoyalashda qo'llaniladigan shifrlash vositalari hisobiga ta'minlangan bo'lishi bizning o'rtamizda kelishilgan.

Agar siz mazkur Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash siyosati qoidalariga rioya etmagan holda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanayotgan bo'lsangiz, biz sizning maslahatchi sifatida ro'yxatdan o'tishingizni o'chirib tashlash huquqiga egamiz.

Biz mazkur Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash siyosati va Umumiy Qoidalar va shartlar qoidalariga rioya qilmaslik bilan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH SIYOSATI. 1-TAHRIR

uchinchi shaxslar oldidagi sizning majburiyatlaringiz bo'yicha yoki siz shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish uchun ruxsat bergan shaxslar oldidagi sizning majburiyatlaringiz bo'yicha javobgarlikni o'z zimmamizga olmaymiz.

8 Kuki-fayllar

Sizni bizning saytimizdagi boshqa foydalanuvchilar orasida ajratib chiqarish uchun bizning veb-sayt kuki-fayllardan (foydalanuvchilarning qattiq disklarida joylashtirilgan kichik fayllar) foydalanadi. Ushbu texnologiya sizga veb-saytdan foydalanishning ijobiy tajribasini taqdim etishga yordam beradi va bizga o'z saytimizni takomillashtirishga imkon beradi. Biz ma'lumotlar oqimini tahlilida yordam berish uchun kuki-fayllardan foydalanamiz. Bundan tashqari, ular xizmatlarni shaxsiy sozlash, axborotli to'ldirish va reklama uchun, hamda reklamani samaradorligini o'lchash uchun qo'llaniladi.

Ma'lum kuki-fayllar shaxsiy ma'lumotlarni saqlaydi - masalan, kirishda "Meni eslab qolish"ga bosilganda kuki-fayl foydalanuvchining ismini saqlab qo'yadi. Ko'pchilik kuki-fayllar foydalanuvchini identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlarni to'plamaydi, buning o'rniga esa ancha umumiy ma'lumotlarni to'playdi, bularga kirish usuli, "Oriflame" saytidan foydalanish va foydalanuvchining odatiy joylashgan joyi kiradi.

"Oriflame" ma'lum xizmatlarni faqat kuki-fayllarni qo'llash bilan erishimlilarini taklif qiladi.

Umuman olganda, kuki-fayllar to'rtta har xil funksiyalarni bajaradi.

8.1 Asosiy kuki-fayllar

Ba'zi kuki-fayllar bizning veb-saytda ishlash uchun ahamiyatli muhimdir. Masalan, ular "Oriflame"ga ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarni identifikatsiyalashni va ularga butun veb-saytga ruxsatni ta'minlash imkonini beradi. Agar ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi kuki-fayllarni o'chirib qo'ysa, ba'zi sahifalar erishimli bo'lmasligi mumkin.

8.2 Eksploatatsion kuki-fayllar

Boshqa kuki-fayllardan foydalanuvchilar veb-saytni qanday ishlatayotganligini tahlil qilish uchun va veb-saytning unumdorligini monitoring qilish uchun foydalanishi mumkin. Bu "Oriflame"ga llovani shaxsiy sozlab, hamda har qanday paydo bo'layotgan muammolarni tez identifikatsiyalab va to'g'rilab yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash imkonini beradi. Masalan, eksploatatsion kuki-fayllar ancha mashhur sahifalarni kuzatish uchun va ba'zi sahifalar xatoliklar haqida xabarlarini nima uchun olayotganini aniqlash uchun qo'llanilishi mumkin. Ushbu kuki-fayllar shu bilan birga foydalanuvchilarga ular veb-saytga tashrif buyurishlarining tarixiga asosan ularga qiziq bo'ladigan mahsulotlar va xizmatlarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.

8.3 Funktsional kuki-fayllar

Funksional kuki-fayllar "Oriflame" veb-sayti foydalanuvchilarning ba'zi afzalliklarini eslab qolishi uchun qo'llaniladi.

8.4 Xulqqa yo'naltirilgan reklama kuki-fayllari

"Oriflame" Foydalanuvchilarga qiziqishlari bo'yicha reklamani taqdim qildish uchun kuki-fayllarni qo'llashi mumkin. Bundan tashqari, "Oriflame" bozorni tadqiqot qilish, daromadlarni kuzatib borish, hamda veb-saytning funktsionalligini yaxshilash va mazkur shartlarni va mualliflik huquqlarini muhofaza qilish siyosatini bajarilishini monitoring qilish maqsadida uchinchi tomonlarning kuki-fayllaridan foydalanishi mumkin.

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH SIYOSATI. 1-TAHRIR

8.5 Google Analytics

Biz bizning saytlar va ilovalar bilan tashrifchilar qanday o'zaro harakat qilishlarini tushunish uchun Google Analytics dan foydalanamiz. Bu siz saytga tashrif buyurganingizda yoki bizning mobil ilovamizdan birini qo'llaganingizda, sizning brauzer avtomatik tarzda Google ga ma'lum ma'lumotlarni yuborishini anglatadi. Masalan: siz tashrif buyurgan sahifaning veb-manzilini, va sizning IP-manzilingizni. Siz Google texnologiyasi qanday qilib ma'lumotlarni to'plashi va ishlov berishi haqida ancha batafsil ushbu [havola bo'yicha bilib olishingiz mumkin: https://www.google.com/policies/privacy/partners/](https://www.google.com/policies/privacy/partners/).

Agar siz Google Analytics sizning brauzeringiz tomonidan ishlatishini istamasangiz, siz [Google Analytics Bloklagichini](#) o'rnatishingiz mumkin. Google Analytics siyosati va Google maxfiylik siyosati haqida batafsil ma'lumotni [shu yerdan](#) topishingiz mumkin.

Foydalanuvchilar kuki-fayllardan voz kechishlari mumkin, agar ularning brauzerlari buning imkonini bersa, binobarin ba'zi "Oriflame" tizimlaridan foydalanishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Kuki-fayllarni qanday o'chirish to'g'risida batafsil [bu yerdan](#) ko'ring (<http://www.allaboutcookies.org/manage-cookies/>).

Kuki-fayllar tijorat faoliyatida qanday ishlatilishi to'g'risida batafsil [bu yerdan](#) ko'ring (<http://www.allaboutcookies.org/>).

9 Bizning Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash siyosatimizdagi o'zgarishlar

Biz kelajakda Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash siyosatiga kiritishimiz mumkin bo'lgan har qanday o'zgartirishlar, bizning veb-saytimizda joylashtiriladi va, agar bu zarur bo'lsa, sizga elektron pochta yoki boshqa usul orqali yuborib turiladi. O'zgarishlar shu bilan birga bizning korxonalarimizda ham erishimli. O'zgarishlar nashr etilgan sanadan boshlab kuchga kiradi. O'zgartirilgan Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash siyosati nashr etilgandan yoki bizning kompaniyada o'z buyurtmangizni joylashtirishdan so'ng sizning saytdan foydalanishingiz, kiritilgan o'zgartirishlar bilan sizning rozilingiz sifatida ko'riladi.

10 Aloqa va shikoyatlarni yuborish uchun kontakt ma'lumotlar

Savollar. Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash siyosatiga nisbatan mulohazalar va so'rovlar olqishlanadi va bizning mijozlar bilan ishlash bo'limimizga yoki maxsus elektron pochta manziliga: privacy@oriflame.com yuboriladi.

Agar siz biz Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash siyosatini buzganligimizga ishonchingiz komil bo'lsa, ko'rsatilgan manzil bo'yicha yozing yoki +998 71 2050088 raqami orqali bizning mijozlar bilan ishlash bo'yicha bo'limimizga qo'ng'iroq qiling. Sizning ishonchingiz bo'yicha, mazkur Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash siyosati buzilgan usullarni, iltimos, iloji boricha batafsilroq tavsiflab bering. Biz sizning shikoyatingizni tezkor tergov qilamiz.

Chop etish sanasi: